



QALBLARGA BAHOR VA SEVGI OLIB KELGAN SHOIRA

Achilova Shabnam

*Urganch davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Yo'ldosheva Sevara

*Urganch davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Badiiy rahbar: Matkarimova Iroda

Xorazm viloyati Shovot tumani

*21-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonimning hayoti, ijod yo'li va she'riyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ayriliq, sevgi, hijron, nozik kechinmalar, sadoqat, Mushoira, obraz, muharrir.*

Ko'p millatli o'zbek adabiyotimiz taraqqiyotida O'zbekiston xalq shoirasi va taniqli jamoat arbobi Zulfiyaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Zulfiya ijodida vatanimiz tabiatining go'zal manzaralari chaman bog'lari obod dalalari mehnatkash o'zbek xalqi vakillari, mehnat samaralari zavq va shavq bilan kuylangan. Shu sababli bir she'rida Shoira shunday deya bong uradi:

Xur vatan bog'ida qushday ozod,
Erkin qanot yozdim, yashnab, gulladim.
Shu cheksiz hayotda quvnoq man ham shod,
Shod dildan shodlik mag'rur kuyladim.

Shoira chuqur ma'noli va ravon satrlarida jonajon yurtimizning baxtiyor hayoti faxr bilan kuylangan. Zulfiya ilk she'rlaridayoq sog'lom ruhi bilan kitobxonlarni o'ziga tortgan. Bu sog'lomlik Zulfiya ijodining asosiy xususiyati bo'lib shoiraning eng so'nggi onlarigacha uni tark etmagan. Shoira she'rlarida sof sevgi, muhabbat, sadoqat kabi sof tuyg'ular ulug'langan. Uning ijodida ayol qalbining nozik kechinmalarini ifodalay olish bosh mavzu va bosh g'oya bo'lib qoldi. Shoira she'riyatida yana bir mavzu hijron edi. Shoiraning 1942-yilda yozilgan "Hijron" nomli she'rida yorini jangga kuzatib, hijron dardlarini chekkan o'zbek ayollarining qismati, taqdirini kuylaydi.

Men sevgan dildorning sevgan yurti bor,
Ishq doim erk uchun hijronga rozi.
Bu hijron mangumas, visoli ham bo,
Qahraton qishlarning bo'lganday yozi.



Zulfiya ijodining rivojlanishida ulkan shoir Hamid Olimjonning ta'sir kuchi bo'lgan. Zulfiya "Kuylarim sizga" she'rlar to'plamiga (1955) yozgan so'z boshida, o'zining ilk ijodi haqida gapirib shunday deydi "Ko'p o'tmay hayot menga yanada talabchan va qattiqqo'l muharrirni baxsh etdi. Hayotimning o'n yili..... Hamid Olimjon bilan hamnafas va hamqadam o'tgani men uchun baxt bo'ldi. Ulkan shoir o'z ona tili va adabiyoti bilimdoni, kam uchraydigan qobiliyat va intizom sohibi edi....

Hamid Olimjon... qalbim va ruhiga uyg'un hamrohim va sezgir maslahatchim edi...". Shoira Hamid Olimjondan ayriliq alamlari, shu bilan birga unga sadoqat, vafodorlik tuyg'ulari " Bahor keldi seni so'roqlab"(1945) chuqur bir dard bilan ifodalanadi.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunlar yonimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham.

Bu she'rning asosida sevimli yor, bahor, o'rik gullari turadi. Shoira Hamid Olimjonni eslaydi. Chunki Hamid Olimjonni bahorga o'rik gullariga maftun bo'lganini eslaydi.

Bahor ham, o'rik gullari ham o'z oshuftasi bo'lgan shoir yigitni izlaydi va esga oladi. Zulfiya she'rida bahor obrazi orqali hayot, yashash, go'zallik ramzi ekanligiga urg'u beradi. Urush yillarida o'zbek she'riyatida ota timsoli G'afur G'ulom she'rlarida, ona va o'g'il timsollari Hamid Olimjon ijodida yuksak mahorat bilan berilganligini ko'ramiz. Zulfiya bu obrazlar qatorini vafodor yor timsoli bilan to'ldirib bordi. Shoira o'z ijodida urush tufayli farzandlaridan judo bo'lgan onalarning, sevimli yoridan ayrilgan kelinlarning, aka-ukalarsiz qolgan opa-singillarning og'ir kechinmalarini, fikr o'ylarini umumlashma obrazini yaratdi.

Shoiraning bunga misol qilib "O'g'lim sira bo'lmaydi urush" she'rini olishimiz mumkin. Bu ijod mahsuli hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aslida butun dunyoni tinchlikka chorlaydi. Barcha onalarni bag'ributunlikda farzandlar kamolini ko'rishga chorlaydi. Dunyo ahlini ogoh bo'lishga, yer yuzida doim tinchlik, osoyishtalik hukm surishini, insonlarni bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishga chorlaydi. Bu she'r bizning nazdimizda xuddi tinchlik madhiyasi sifatida yangramoqda. Zulfiya ona vatanga uning mehnatkash ahliga - o'zbek xalqiga hayotiga e'tibor bilan nazar soladi. Shoiraning "Yuragimga yaqin kishilar" she'rida bu qarashlarining guvohi bo'lamiz.

Odamlar daryosi oqar yonimdan,
Qarayman hammasi hammasi tanish.
ham kasbini ham ammo,
Bilaman barida buyuk intilish.

Bilmayman ismini

Bu satrlarda yurakka yaqin tuyg'ular mahorat bilan izhor etilgan. Shoira insonlar uchun musaffo tong, mustahkam tinchlik, do'stlik va birdamlik istaydi. Tinchlik va xalqlar do'stligi g'oyasi Zulfiya ijodining bosh g'oyasiga aylandi. "Mushoira" she'rida bunga yana bir bor guvoh bo'lamiz.



Bu asar shubhasiz ko'p millatli xalqlar adabiyotining yutug'i bo'ldi. Yillar o'tdi, davr o'zgarmoqda shoira ijodiga alohida e'tibor qaratilmoqda "Zulfiya xonim qizlari" "Zulfiya xonim izdoshlari" tanlovlari buning natijasi emasmi?! Zulfiyaxon o'zbek xalqining ori nomusi, baxtu saodati, poklik, sadoqat timsoli deb bilamiz. Uning hayot yo'li ham, ijodi ham biz yosh avlod uchun ibrat va namuna. Bahoriy kunlarga yaqin qoldi. Mayin shabboda erkalanmoqda ilk bahor kuni aynan shu sadoqat timsoli bo'lmish o'zbek onasi, o'zbek ayoli, o'zbek qizi tavalludi bilan boshlanadi.

Bu bejiz emas albatta, shoira yaratgan har bir satrda duru gavhardan ham qimmatliroq ma'nolar shodasi bor, shoira "Tong kuychisi" deya e'tirof etiladi. Shoira aytganidek "She'rlar minglarcha kishilar o'z qalbi va o'z dili bilan his etib o'zlariniki qilib olganda poeziyaga aylanadi... "Yurtimizda shoira 108 yilligi keng nishonlanmoqda, biz o'zbek qizlari ham o'z bilimimiz o'z ma'naviyatimiz ila Shoira tavalludini nishonlashga o'z hissamizni qo'shmoqdamiz. Shoira o'zbek xalqiga orqa tog' bo'ldi. U o'z ijodini ota kasbiga qiyos qildi. Darhaqiqat, uning she'rlarida chaqin bor edi. U umriga achinmadi, tabassum o'rniga charaqlab kuldi, suyish kerak bo'lsa telbacha sevdi. Biz shunday ijod borligidan faxrlanamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Zulfiya. Saylanma.. Toshkent. 2006.
- 2.Zulfiya. 2 jildlik Tanlangan asarlar. Toshkent. 1974.